| Vakansiya haqida ma’lumot | |
|---|---|
| Lavozim: | **Yapon tili kurslari bo‘limiga yapon tili o‘qituvchisi (Qo‘qon shahri)**<br>**Yapon tili bo‘yicha o‘qituvchi** |
| Asosiy vazifalar | **Qo‘qon shahridagi O‘zbekiston-Yaponiya markazi filialiga yapon tili o‘qituvchisi ishga taklif etiladi.**<br>**Asosiy vazifalar:**<br>● Yapon tilini o‘qitish bo‘yicha darslarni olib borish;<br>● O‘quv dasturlarini tuzishda ishtirok etish;<br>● Tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etish;<br>● Biznes ta’limiga oid tadbirlarni (kurslar, seminarlar) tayyorlash va o‘tkazishda ishtirok etish;<br>● Ishbilarmon hamkorlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda yordam berish. |
| **Nomzodga qo‘yiladigan talablar** | |
| Yosh: | Ahamiyatsiz |
| Jinsi: | Erkak / ayol |
| Ma’lumoti: | Oliy |
| Kasbiy talablar | ● “Noryoku shiken” imtihonining N1 yoki N2 sertifikatiga ega bo‘lish. So‘nggi uch yil ichida berilgan sertifikatlar qabul qilinadi. Yoki Davlat test markazi tomonidan berilgan xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo‘lish.<br>● Yapon filologiyasi, lingvistika yoki yapon tilini o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lish.<br>● Yaponiyada stajirovka o‘taganlik hamda yapon tilini o‘qitish tajribasiga ega nomzodlarga ustunlik beriladi. |
| **Ish sharoitlari** | |
| Hudud: | Qo’qon shahri |
| Bandlik turi: | To’liq |
| Maosh: | Kelishuvga asosan |
| Qo‘shimcha motivatsiya | ●Mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilish<br>●Ish grafigi 5/2, soat 9:00 dan 18:00 gacha (kechki darslar o‘tkazilishi holatida o‘zgarishi mumkin).<br>●Kechki vaqtda ishlay oladigan nomzodlarga ustunlik beriladi.<br>●Ofis shahar markazida joylashgan. |
| **Qo‘shimcha ma’lumotlar** | |
| Qo‘shimcha ma’lumotlar | QABUL JARAYONI:<br>I-bosqich: Rezyume qabul qilish<br>II-bosqich: Yozma imtihon<br>III-bosqich: Namunaviy dars + suhbat<br><br>* Har bir keyingi bosqichga faqat muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar taklif qilinadi.<br>**So‘nggi 3 yil ichida olingan “Noryoku shiken” N1–N2 darajadagi sertifikat egalari yozma imtihondan ozod etiladi.<br><br>KERAKLI HUJJATLAR:<br>1. Markaz rezyumesi yapon va o’zbek tillarida (namunani UJC saytining ujc.uz sahifasidan yuklab olish mumkin);<br>2. Oliy ta’lim diplomi nusxasi;<br>3. Til bilishini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi (“Nihongo Noryoku Shiken”, DTM sertifikati va boshqalar, agar mavjud bo‘lsa);<br>4. Til bilimi, kompyuter ko‘nikmalari va boshqa malakalarni tasdiqlovchi qo‘shimcha sertifikatlar nusxalari (agar mavjud bo‘lsa).<br><br>Barcha kerakli hujjatlarni quyidagi elektron manzilga yuborishingiz so‘raladi: **hr@ujc.uz** |